

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

Izoh: 2024- yil yanvar-dekabr hamda 2025- yil
1- yanvar holatiga ma'lumotlar dastlabki, qolgan
davrlar bo'yicha yakuniy ma'lumotlar keltirilgan.



TOSHKENT VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2025- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning 1- yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 108,5 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 56,7 ming kishiga yoki 1,9 % ga ko'paydi. Shundan, shahar joylarida 1 554,3 ming kishini (jami aholi sonining 50,0 %) va qishloq joylarida 1 554,2 ming kishini (50,0 %) tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 108,5 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+53,2 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



50,0%

Qishloq



50,0%

Aholining tabiiy harakati, kishi

yanvar-dekabr

	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	o'sish, kamayish, +,-	2023- yil	2024- yil
Tug'ilganlar	73 171	69 576	-3595	24,2	22,6
O'lganlar	15 529	16 393	864	5,1	5,3
Ko'chib kelganlar	28 474	32 434	3960	9,4	10,5
Ko'chib ketganlar	27 800	28 856	1056	9,2	9,4

	birlik			1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	o'sish, kamayish, +,-	2023- yil	2024- yil
Nikohlar	21 307	20 111	-1196	7,0	6,5
Ajralishlar	4 826	4 570	-256	1,6	1,5

Toshkent viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-dekabr



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2025- yil 1- yanvar holatiga



2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Toshkent viloyatida doimiy aholisi sonining mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar **30,2 %** ni, mehnatga layoqatli yoshdagilar **55,9 %** ni va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar **13,9 %** ni tashkil qildi.

Jinsi bo'yicha aholi tarkibi

2025- yil 1- yanvar holatiga



Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- yanvar holatiga, kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	3 051 768	3 108 529	101,9
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	56 180	57 523	102,4
Olmalik	146 615	148 896	101,6
Angren	182 429	185 501	101,7
Bekobod	104 318	106 079	101,7
Ohangaron	41 349	42 035	101,7

	2023- yil	2024- yil	<i>O‘sinh sur‘ati, %da</i>
Chirchiq	172 917	175 500	101,5
Yangiyo‘l	85 472	87 304	102,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	112 149	114 020	101,7
Ohangaron	111 202	113 032	101,6
Bekobod	165 696	168 245	101,5
Bo‘stonliq	176 716	178 124	100,8
Bo‘ka	134 412	136 671	101,7
Quyi Chirchiq	115 916	117 706	101,5
Zangiota	171 185	175 566	102,6
Yuqori Chirchiq	139 182	141 713	101,8
Qibray	175 366	178 733	101,9
Parkent	178 209	181 949	102,1
Piskent	101 512	103 352	101,8
O‘rta Chirchiq	137 016	140 429	102,5
Chinoz	145 490	148 176	101,8
Yangiyo‘l	199 965	203 891	102,0
Toshkent	198 472	204 084	102,8


Viloyat hududida aholi sonining eng ko‘p o‘sishi 2025- yil 1- yanvar holatiga Toshkent (102,8 %), Zangiota (102,6 %), O‘rta Chirchiq (102,5 %) tumanlarida kuzatildi.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr, kishi




2024- yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 69 576 nafarni tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (73 171 nafar) nisbatan 3 595 nafarga kamaygan. Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 22,6 promilleni tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan 1,6 promillega kamaydi.




Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari

2024- yil yanvar-dekabr, kishi




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining sabablari: Qon aylanish tizimi kasalliklaridan - 59,9 % ni, o‘simtalardan - 11,2 % ni, boshqa kasalliklardan - 11,2 % ni, baxtsiz hodisa zaharlanish va jarohatlanishlardan - 7,2 % ni, nafas olish a‘zolari kasalliklaridan - 5,6 % ni, ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan - 3,6 % ni hamda yuqumli va parazitlar kasalliklaridan - 1,3 % ni tashkil qildi.

VAFOT ETGANLAR (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-dekabr, kishi



2024- yil yanvar-dekabr oylarida 16 393 ta o'lim holati qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,3 promilleni tashkil etdi.




QAYD ETILGAN NIKOHLAR (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-dekabr, birlik



Nikoh tuzish koeffitsiyentining o'tgan yilga nisbatan eng ko'p pasayishi Ohangaron tumanida (2,3 promillega) va O'rta Chirchiq tumanida (2,0 promillega) kuzatildi.




NIKOHDAN AJRALISHLAR (yanvar-dekabr)



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr, birlik




2024- yil yanvar-dekabr oylarida 4 570 ta nikohdan ajralish holati qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,5 promilleni tashkil etgan.



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr



2024- yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **48,6 %** i farzandsiz, **28,2 %** i bitta farzand bilan va **23,2 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(yanvar - dekabr)

(kishi)

Hudud nomi	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Viloyat bo'yicha:	28 474	32 434	27 800	28 856	674	3578
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	917	1 211	431	622	486	589
Olmalik	1 500	1 372	1 507	1 506	-7	-134
Angren	871	1 047	884	853	-13	194
Bekobod	606	779	706	704	-100	75
Ohangaron	857	777	410	440	447	337
Chirchiq	2 670	2 654	2 041	1 754	629	900
Yangiyo'l	1 476	1 627	883	1 014	593	613
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	299	502	722	660	-423	-158
Ohangaron	871	814	972	1 168	-101	-354
Bekobod	490	403	879	1 076	-389	-673
Bo'stonliq	852	426	1 722	1 618	-870	-1192
Bo'ka	257	498	870	849	-613	-351
Quyi Chirchiq	797	836	1 208	1 109	-411	-273
Zangiota	3 122	4 071	2 323	2 699	799	1372
Yuqori Chirchiq	1 009	1 830	1 611	1 570	-602	260
Qibray	2 538	3 204	2 843	2 747	-305	457
Parkent	454	471	570	659	-116	-188
Piskent	450	705	952	793	-502	-88
O'rta Chirchiq	1 832	2 223	1 476	1 688	356	535
Chinoz	1 092	1 044	983	1 027	109	17
Yangiyo'l	2 187	2 447	2 148	2 383	39	64
Toshkent	3 327	3 493	1 659	1 917	1668	1576

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.